

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Muqimova Maxfuza Xamidovna

Annotatsiya maqolada, boshlang‘ich sinflarda xorijiy tillarni o‘qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish va uning metodik asoslari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: metod, metodika, uslubiy, pedagogik texnologiya, usul.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 19 maydagi “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi № 312 sonli Qarorida, o‘quv jarayonini metodik qo‘llab-quvvatlash, o‘quvchilarning asosiy til ko‘nikmalarini mustahkamlash va qo‘llashda ko‘maklashish, shu jumladan ta’lim jarayoniga xorijiy mutaxassislarni jalb etish;

ta’lim jarayoniga malakali professor-o‘qituvchilar va iqtidorli talabalarni jalb qilish choralarini ko‘rish hamda ular ishtirokida mahorat darslarini tashkil qilish;

xorijiy tillarga o‘qitish kurslari va to‘garaklari faoliyatini yo‘lga qo‘yish, shuningdek, o‘quvchilar o‘rtasida ko‘rik-tanlovlar va olimpiadalar tashkil etish kabi asosiy vazifalar belgilab berilgan.

Bu borada, boshlang‘ich ta’lim tizimida yangi muhitini shakllantirish, ya’ni o‘quvchilar faolligini oshirishga yo‘naltirilgan tabaqalashtirilgan ta’lim asosida zamonaviy o‘quv-metodik ta’minoti yaratish va amaliyotga joriy qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga xorijiy tillarni muvaffaqiyat bilan o‘qitish uchun mehnat faoliyatini boshlovchi o‘qituvchi xorijiy tillarni o‘qitishning ishlab chiqilgan tizimini, ya’ni boshlang‘ich sinflarda xorijiy tillar o‘qitish metodikasini egallagan bo‘lishi va shu asosda mustaqil ravishda ijodiy ishga kirishishi kerak. «Metodika» grekcha so‘z bo‘lib, «metod» degani yo‘l demakdir. Xorijiy tillarni o‘qitish metodikasi pedagogika fanlari sistemasiga kiruvchi pedagogika fanining tarmog‘i bo‘lib,

jamiyat tomonidan qo'yilgan o'qitish maqsadlariga muvofiq matematika qonuniyatlarini matematika rivojining ma'lum bosqichida tadqiq qiladi.

Xorijiy tillarni o'qitish boshlang'ich ta'lim metodikasining predmeti quyidagilardan iborat:

1. Xorijiy tillarni o'qitishdan ko'zda tutilgan maqsadlarni asoslash. (nima uchun o'qitiladi).


2. Xorijiy tillarni o'qitish mazmunini ilmiy ishlab chiqish (ya'ni Xorijiy tillardan qaysi material boshlang'ich sinflarda o'rganilishi, nima uchun aynan shu material tanlanishi, boshlang'ich sinflarda kursning har qaysi ayrim masalasi umumlashirishning qanday darajasida o'rganilishi, mavzular qanday tartibda o'rganilsa, eng ratsional bo'lishi ko'rsatiladi).

3. O'qitish metodlarini ilmiy ishlab chiqish. (qanday o'qitish kerak, ya'ni o'quvchilar hozirgi kunda zarur bo'lgan bilim, malaka, ko'nikmalarni va aqliy qobiliyatlarini egallab oladigan bo'lishlari uchun o'quv ishlari metodikasi qanday bo'lishi kerak?)

4. O'qitish vositalari, darsliklar, didaktik materiallar, ko'rsatma - qo'llanmalar va texnik vositalarni ishlab chiqish (nima yordamida o'qitish?).

5. Ta'limni tashkil etishni ilmiy ishlab chiqish__(darsni va ta'limning darsdan tashqari formalarini qanday o'tkazish?. O'quv ishlarini qanday tashkiliy metodlarda o'tkazish kerak?. O'quv prosessida ta'limiy va tarbiyaviy masalalarni qanday qilib samaraliroq hal qilish kerak?).

Shunday qilib, o'qitishning maqsadlari, mazmuni metodlari, vositalari va shakllari metodik tizimning asosiy komponentalaridir.



Eng avvalo, shuni ta'kidlash kerakki, o'zining bazaviy fani bo'lmish-matematika fani bilan uzviy ravishda bog'langan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yangi tahrirdagi. Davlat ta'lim standartlari.
2. L.Sh. Levenberg. «Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi». T – 1985 yil.